



NOQONUNIIY ORTTIRILGAN BOYLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Qobilov Farhod Rustam o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Magistratura fakulteti tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19625571>

Annotatsiya. Mazkur maqolada noqonuniy orttirilgan boylik uchun javobgarlik instituti — uning nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va O'zbekiston qonunchiligi kontekstida joriy etilishi istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida “noqonuniy boylik orttirishning isboti” masalasi, isbotlash yukini sudlanuvchiga o'tkazish tamoyili, shuningdek BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) va bir qator xorijiy davlatlar tajribasi ko'rib chiqiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston amaldagi qonunchiligida bu institutni joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lsa-da, bir qator huquqiy va institutsional islohotlar talab etiladi.

Kalit so'zlar: noqonuniy boylik orttirishish, korrupsiyaga qarshi kurash, isbotlash yuki, UNCAC, jinoyat qonunchiligi, mulkiy javobgarlik, aybsizlik prezumpsiyasi, moliyaviy monitoring.

Abstract. This article analyzes the institution of liability for illicit wealth - its theoretical foundations, international experience and prospects for its introduction in the context of Uzbek legislation. The study examines the issue of “proof of illicit wealth”, the principle of shifting the burden of proof to the defendant, as well as the United Nations Convention against Corruption (UNCAC) and the experience of a number of foreign countries. The analysis shows that although the current legislation of Uzbekistan has the necessary conditions for the introduction of this institution, a number of legal and institutional reforms are required.

Keywords: illicit wealth, fight against corruption, burden of proof, UNCAC, criminal law, property liability, presumption of innocence, financial monitoring.

Аннотация. В данной статье анализируется институт ответственности за хищение имущества – его теоретические основы, качественные аспекты и возможные варианты реализации в контексте узбекского законодательства. Рассматриваются вопрос «доказательства хищения имущества» в докладе, перекладывание бремени доказывания на обвиняемого, Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (КООН) и ряд дополнительных мер. Анализ показывает, что, хотя действующее законодательство Узбекистана имеет необходимые условия





для введения этого института, необходим ряд правовых и институциональных требований.

Ключевые слова: хищение, борьба с коррупцией, бремя доказывания, КООН, уголовное право, ущерб имуществу, презумпция невиновности, мониторинг.

Kirish


Bugungi globallashuv davrida korrupsiya davlatning iqtisodiy barqarorligiga va ijtimoiy adolat tamoyillariga jiddiy xavf tug'diruvchi omil hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida xizmatchilarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash hamda noqonuniy boyish uchun javobgarlikni belgilash masalasi ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun va korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qator Prezident farmonlari qabul qilinishi bilan ushbu institutni joriy etish uchun huquqiy poydevor yaratildi. Biroq, noqonuniy orttirilgan boylikni musodara qilish va buning uchun jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikni belgilash masalasi hali ham milliy qonunchilikda to'liq yechimini topmagan huquqiy bo'shliqlardan biri bo'lib qolmogda.

Ushbu mavzuning huquqiy asosi sifatida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muhim o'rin tutadi. Mazkur Konvensiyaning 20-moddasida ("Noqonuniy boyish") quyidagicha qayd etilgan: "O'z konstitutsiyasi va huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga rioya qilgan holda, har bir ishtirokchi-davlat davlat mansabdor shaxsining aktivlari uning qonuniy daromadlariga nisbatan asossiz ravishda ko'payganida va u buni oqilona asoslab bera olmaganida, bunday xatti-harakatni huquqbuzarlik sifatida e'tirof etish uchun zarur choralar ko'rishni ko'rib chiqadi."¹

Qiziqish davri (period of interest) shaxs noqonuniy boylik orttirgani uchun javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan vaqtni anglatadi. Boylik ortishi davrining izohi davlat mansabdor shaxslari tomonidan sezilarli darajada boylik ortishini nazarda tutadi. Boylik ortishining ta'rifi, shuningdek, tergovchilar uchun mansabdor shaxs korrupsiya harakatini sodir etganini aniqlashda taxminiy asos yaratish kabi amaliy maqsadga ham xizmat qiladi. Garchi UNCAC ushbu davrni aniq belgilab bermagan bo'lsa-da, undan shuni anglash mumkinki, bu davlat

¹ BMT Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (UNCAC), 2003. United Nations Treaty Series.
<https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/uncac.html>





mansabdor shaxsining xizmat davrida katta va asossiz boylik orttirishi bilan bog'liqdir. Mansabdor shaxs ehtimol o'z lavozimida ishlagan davrida boylik orttirgan bo'ladi. Ushbu asossiz boylik ortishi mansabni egallagan kundan boshlab, uni tark etguniga qadar davom etadi.²

Ushbu maqolaning maqsadi - xalqaro tajriba va "aybsizlik prezumpsiyasi" tamoyillarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "Noqonuniy boyish" moddasini kiritishning istiqbollari, xorijiy davlatlar (Singapur, Gonkong, Gruziya) tajribasi va ushbu jarayondagi mavjud huquqiy to'siqlarni tahlil qilishdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli va doktrinal tahlil usullaridan foydalanildi. Formal-yuridik usul orqali O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining tegishli normalari o'rganildi. Qiyosiy-huquqiy usul yordamida ayrim xorijiy davlatlar tajribasi - noqonuniy boylik orttirish subyekti, vaqt doirasi, isbotlash modeli va protsessual kafolatlari kesimida tahlil qilindi. Tizimli yondashuv esa mazkur institutning deklaratsiya, aktivlarni kuzatish, tekshirish va musodara mexanizmlari bilan bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi. Transparency International tahlillarida ushbu institutning afzalligi sifatida isbotlashdagi amaliy qiyinchiliklarni kamaytirishi qayd etiladi. Biroq ayni manbada uning xavflari ham ko'rsatiladi: jinoyat tarkibining noaniq ifodalanishi, ayblanuvchining sukut saqlash huquqiga bosim, o'zini o'zi fosh etishga majbur qilish ehtimoli hamda isbotlash yukining amalda davlatdan shaxs zimmasiga siljishi. Shu sababli mualliflar qat'iy protsessual kafolatlarni nazarda tutishni tavsiya etadilar.³

Jahon banki va STAR tashabbusi doirasidagi tadqiqotlar noqonuniy boylik orttirish bo'yicha "tayyor namunaviy norma"ni ko'chirib olish samara bermasligini ko'rsatadi. Ularning xulosasiga ko'ra, norma mazmuni milliy konstitutsiyaviy tuzilma, moliyaviy nazorat infratuzilmasi, deklaratsiya tizimi, tergov organlarining malakasi va sud amaliyoti imkoniyatlariga mos ravishda ishlab chiqilishi zarur. Qonun imkon qadar aniq, isbotlash bosqichlari esa ravshan belgilangan bo'lishi kerak.⁴

² Islamiah, C., & Setyorini, E. H. (2024). Characteristics of illicit enrichment as a corruption crime. DiH: Jurnal Ilmu Hukum, 19(1), 34-49. <https://pdfs.semanticscholar.org/2541/23b2609965820b33607e0e7ff5b6c96ea0d7.pdf>

³ Fagan, C. (2013). Illicit Enrichment Regulations. Transparency International Anti-Corruption Helpdesk.

⁴ Muzila, L., Morales, M., Mathias, M., & Berger, T. (2012). On the Take: Criminalizing Illicit Enrichment to Fight Corruption.





Xalqaro-huquqiy manbalar tahlili ham ushbu institutga nisbatan turli darajadagi majburiyat mavjudligini ko'rsatadi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 20-moddasida davlatlar "konstitutsiyasi va huquq tizimining fundamental prinsiplari"ni inobatga olgan holda noqonuniy boylikni jinoyat deb belgilashni ko'rib chiqishi kerakligi nazarda tutilgan. Demak, UNCAC mazkur masalada tavsiyaviy modelni tanlagan. Bunga qarama-qarshi ravishda Amerikalararo konvensiyaning IX moddasi va Afrika Ittifoqi konvensiyasining 8-moddasi noqonuniy boylikni milliy qonunchilikda huquqbuzarlik sifatida belgilash bo'yicha ancha qat'iy yondashuvni ifodalaydi.⁵ Adabiyotlarda keltirilgan asosiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, noqonuniy moliyaviy oqimlardan ham jismoniy shaxslar, ham korxonalar faol foydalanadi. Bu amaliyotlarga boylikni soliq panohlarida yashirish, maxfiylikni oshirish uchun mablag'larni bir nechta soliq panohlari orqali o'tkazish, yuqori soliq stavkasi mavjud mamlakatlarda foydani kamaytirib, past soliq stavkali mamlakatlarda esa sun'iy ravishda oshirish kiradi. Taxminan YaIMning 10 foizi jismoniy shaxslar tomonidan soliq panohlarida saqlanadi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning qariyb 40 foizi esa mahalliy iqtisodiyot bilan real bog'liqliksiz soliq panohlari orqali yo'naltiriladi. Shuningdek, xorijdagi sho'ba korxonalarning o'rtacha korporativ soliq stavkasi 1 foiz punktga kamayishi, o'rtacha hisobda, foydaning 0,8–1,0 foizga kamayishi bilan bog'liq. Iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha farqlarni hisobga olgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kamroq rivojlangan mamlakatlar IFFlarga ko'proq duch keladi. Noqonuniy moliyaviy oqimlarga qarshi siyosat choralarini baholash esa ijobiy natijalarni ko'rsatadi, biroq bu tadqiqotlar asosan yuqori daromadli mamlakatlar ma'lumotlariga asoslangan.⁶

Milliy adabiyot va amaliy manbalar O'zbekiston uchun asosiy muammo aynan deklaratsiya va verifikatsiya mexanizmlarining to'liq joriy etilmaganida ekanini ko'rsatadi. OECD monitoring hisobotida O'zbekistonda daromad va mulk deklaratsiyasi hamda noqonuniy boylikka oid qonunchilik loyihalari tayyorlangan bo'lsa-da, ular qabul qilinmagani, bunga esa konstitutsiyaviy prinsiplar, ayniqsa aybsizlik prezumpsiyasi bilan bog'liq e'tirozlar sabab bo'lgani qayd etiladi. O'zbekiston bo'yicha zamonaviy tahliliy maqolalar ham noqonuniy boylikka qarshi kurashishning muvaffaqiyati deklaratsiya, raqamli tekshiruv,

⁵ African Union Convention on Preventing and Combating Corruption (Maputo, 11 July 2003).
<https://www.uio.no/english/services/library/treaties/04/4-04/combating-corruption.htm>

⁶ Kasper Brandt, 'Illicit financial flows and developing countries: A review of methods and evidence' (2020) 34(3) Journal of Economic Surveys 561 <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/pdf/10.1111/joes.12518>





turmush tarzini tahlil qilish va sanksiyalarning aniq tizimiga bog'liq ekanini ko'rsatadi.⁷

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asosi mavjud bo'lsa-da, noqonuniy boylik orttirish masalasida qonunchilikda sezilarli bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonun korrupsiya tushunchasiga ta'rif berishdan tortib, vakolatli organlar, javobgarlik turlari va xalqaro hamkorlik masalalarigacha bo'lgan muhim jihatlarni qamrab olgan.⁸ Biroq mazkur Qonunda mansabdor shaxsning daromadiga nomuvofiq mol-mulkka egaligi uchun alohida jinoiy moddaning nazarda tutilmaganligini tadqiqot aniqladi. Ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; hamda korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarlari ko'rsatilgan. Shunga qaramasdan, bu tamoyillar amalda qo'llanilishi uchun noqonuniy boylik orttirish faktini mustaqil jinoyat sifatida belgilaydigan me'yor hali qonunchilikda mustahkamlanmagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining yig'ilishida Prezident noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik joriy etish zarurligini alohida ta'kidlab, qonunchilikka noqonuniy boylik orttirish to'g'risidagi moddani kiritishni taklif qilgan. Bunda davlat xizmatchisi deklaratsiya qilgan daromadiga mos kelmaydigan mol-mulkini qayerdan olganini isbotlashi kerak bo'ladi.⁹ Bu esa davlat siyosati darajasida masalaning dolzarbligini tan olishdan dalolat beradi.

Korrupsiya iqtisodiy o'sish va unumdorlikni qanday susaytirishini ko'rsatadigan empirik tadqiqotlar tobora ko'paymoqda. Masalan, Jahon banki baholashicha, korrupsiya mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini yiliga 0,5–1,0 foiz punktga kamaytirishi mumkin. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) tadqiqotlari esa shuni ko'rsatadiki, korrupsiya keng tarqalgan mamlakatlarga kiritiladigan investitsiyalar darajasi korrupsiya kam bo'lgan mamlakatlarga nisbatan ancha past bo'ladi. Standard va Poor's ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya

⁷ Janturaev A. How effective are Uzbekistan's efforts on implementing an asset declaration system for public officials: is it a crucial tool or a paper tiger? // Uzbekistan Law Blog. – 2024. [Elektron resurs].

⁸ "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun. <https://lex.uz/docs/-3088008>

⁹ O'zbekistonda amaldorlar daromadlarini deklaratsiya qilish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqildi — XVJ // Spot.uz. – 2025. – 27-noyabr. [Elektron resurs]. [O'zbekistonda amaldorlar daromadlarini deklaratsiya qilish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqildi — XVJ – Spot](#)





yuqori bo'lgan mamlakatlarga kiritilgan investitsiyalarning 5 yil ichida yo'qotilish ehtimoli 50–100 foizni tashkil etadi. Qo'shimcha tadqiqotlar shuni ham ko'rsatadiki, korrupsiya boyliklarning zararli tarzda qayta taqsimlanishiga olib keladi va bu esa ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.¹⁰

Noqonuniy boylik orttirish uchun javobgarlik mexanizmlarini qo'llash korrupsiyani o'z ichiga olgan turli jinoyatlarga qarshi kurashda foydali bo'lishi mumkin, chunki bu ularning asosiy noqonuniy faoliyatini isbotlamasdan sanksiya qo'llash imkonini beradi. Bu, xususan, pul-naqd muomalasining keng tarqalganligi va vaqt o'tishi bilan kichik miqdorda pora berilishi holatlarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.


Noqonuniy boylik qonunlariga nisbatan ba'zi tanqidiy qarashlar ham mavjud: bu qonunlar shaxsning jim turish huquqi va aypsizlik prezumpsiyasini buzishi mumkin degan fikrlar bildiriladi. Biroq noqonuniy boylik qonunlariga nisbatan amalga oshirilgan sud muhokamalari aksariyat hollarda muvaffaqiyatsiz tugagan, va deyarli barcha ko'rib chiqqan sudlar bu qonunlar huquqlarni qabul qilib bo'lmas darajada buzmasligini qayd etgan.

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, O'zbekiston uchun eng maqbul model quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi lozim. Jinoyat kodeksiga mansabdor shaxs tomonidan noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash taklif qilingan bo'lib, bunday modda BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasi 20-moddasiga mos kelishi zarur. Unga ko'ra, amaldorning xarajati daromadiga munosib bo'lishi lozim.

Xulosa

Noqonuniy boylik orttirish uchun javobgarlik mexanizmlarini qo'llash korrupsiyani o'z ichiga olgan turli jinoyatlarga qarshi kurashda foydali bo'lishi mumkin, chunki bu ularning asosiy noqonuniy faoliyatini isbotlamasdan sanksiya qo'llash imkonini beradi. Bu, xususan, pul-naqd muomalasining keng tarqalganligi va vaqt o'tishi bilan kichik miqdorda pora berilishi holatlarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Noqonuniy boylik qonunlariga nisbatan ba'zi tanqidiy qarashlar ham mavjud: bu qonunlar shaxsning jim turish huquqi va o'zini o'zi ayblamaslik imtiyozini buzishi mumkin degan fikrlar bildiriladi. Biroq noqonuniy boylik qonunlariga nisbatan amalga oshirilgan sud muhokamalari aksariyat

¹⁰ Jeffrey R Boles, 'Criminalizing the Problem of Unexplained Wealth: Illicit Enrichment Offenses and Human Rights Violations' (2012) 17(4) NYU Journal of Legislation & Public Policy 835. [file:///C:/Users/user/Downloads/ssrn-2588488%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/ssrn-2588488%20(1).pdf)





hollarda muvaffaqiyatsiz tugagan, va deyarli barcha ko'rib chiqqan sudlar bu qonunlar huquqlarni qabul qilib bo'lmas darajada buzmasligini qayd etgan.

Ushbu tadqiqot noqonuniy orttirilgan boylik uchun jinoiy javobgarlik joriy etish O'zbekiston uchun ham huquqiy, ham siyosiy jihatdan asosli va zarur ekanligini isbotladi. Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi antikorrupsiya qonunchiligi noqonuniy boylik orttirish institutini mustaqil jinoyat sifatida belgilaydigan maxsus normadan mahrumligi tufayli deklaratsiyalash tizimining samaradorligi cheklangan bo'lib qolmoqda. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunga asosan qabul qilingan davlat dasturlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, noqonuniy boylikka oid alohida moddaning yo'qligi bu harakatlarning ta'sir doirasini toraytirmoqda. Ikkinchidan, xalqaro andozalar nuqtai nazaridan noqonuniy boylik orttirish UNCAC, IACAC va AUCPCC kabi yirik xalqaro konventsiyalarda tan olingan bo'lsa-da, u hali barcha davlatlar tomonidan umumiy qabul qilingan antikorrupsiya chorasi sifatida e'tirof etilmagan va keng munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shunga qaramasdan, xalqaro tajriba ushbu normani joriy etgan davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligining sezilarli oshganligini tasdiqlaydi. Uchinchidan, UNCAC noqonuniy boylik orttirishni majburiy bo'lmagan jinoiy huquqbuzarlik sifatida qabul qilgan va davlatlarni o'z konstitutsiyaviy talablari va huquqiy tizimlarining fundamental prinsiplari doirasida noqonuniy boylik orttirishni jinoyat deb topishni ko'rib chiqishga undaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasi va huquqiy tizimi esa bunday normani joriy etishga to'sqinlik qiladigan asosiy cheklovlarni o'z ichiga olmaydi. Beshinchidan, O'zbekiston uchun jinoiy javobgarlik modeli qo'shimcha ravishda fuqarolik-huquqiy musodara mexanizmi bilan to'ldirilishi, isbotlash yuki ayblovchi tomon bilan ayblanuvchi o'rtasida oqilona taqsimlanishi, va retroaktiv qo'llanishdan qat'iy saqlanish orqali huquqiy xavfsizlik ta'minlanishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, noqonuniy boylik orttirish uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali vositasiga aylanishi uchun bu norma chuqur tayyorgarlik ko'rilgan holda, xalqaro standartlarga asoslanib, va yaxlit islohotlar tizimining bir qismi sifatida qabul qilinishi lozim. Ushbu chora mamlakatimizning BMT Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasiga qo'shilish majburiyatlarini to'laqonli bajarishga va xalqaro hamjamiyatda huquqiy davlat sifatida obro'sini mustahkamlashga xizmat qiladi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BMT Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasi (UNCAC), 2003. United Nations Treaty Series. <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/uncac.html>
2. Islamiah, C., & Setyorini, E. H. (2024). Characteristics of illicit enrichment as a corruption crime. DiH: Jurnal Ilmu Hukum, 19(1), 34-49. <https://pdfs.semanticscholar.org/2541/23b2609965820b33607e0e7ff5b6c96ea0d7.pdf>
3. Fagan, C. (2013). Illicit Enrichment Regulations. Transparency International Anti-Corruption Helpdesk.
4. Muzila, L., Morales, M., Mathias, M., & Berger, T. (2012). On the Take: Criminalizing Illicit Enrichment to Fight Corruption.
5. African Union Convention on Preventing and Combating Corruption (Maputo, 11 July 2003). <https://www.uio.no/english/services/library/treaties/04/4-04/combating-corruption.htm>
6. Kasper Brandt, 'Illicit financial flows and developing countries: A review of methods and evidence' (2020) 34(3) Journal of Economic Surveys 561 <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/pdf/10.1111/joes.12518>
7. Janturaev A. How effective are Uzbekistan's efforts on implementing an asset declaration system for public officials: is it a crucial tool or a paper tiger? // Uzbekistan Law Blog. – 2024. [Elektron resurs].
8. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun. <https://lex.uz/docs/-3088008>
9. O'zbekistonda amaldorlar daromadlarini deklaratsiya qilish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqildi — XVJ // Spot.uz. – 2025. – 27-noyabr. [Elektron resurs]. O'zbekistonda amaldorlar daromadlarini deklaratsiya qilish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqildi — XVJ – Spot
10. Jeffrey R Boles, 'Criminalizing the Problem of Unexplained Wealth: Illicit Enrichment Offenses and Human Rights Violations' (2012) 17(4) NYU Journal of Legislation & Public Policy 835. file:///C:/Users/user/Downloads/ssrn-2588488%20(1).pdf

